

TIM BURTON ANIMATSIYALARIDA AN'ANAVIY TEKNOLOGIYALAR VA USLUBIY XUSUSIYATLAR TAHLILI



RAIMOVA MOHINA NURIDDIN QIZI

Kamoliddin behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn
instituti. PhD tayanch doktorant

Annotatsiya: Ushbu maqolada mashhur amerikalik rejissor va animator Tim Burton ijodi misolida an'anaviy animatsiya texnologiyasi va uning uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – Burton animatsiyalarida qo'g'irchoq animatsiyasi, dekoratsiya va kadrma-kadr suratga olish uslubining qo'llanilishi hamda ular bilan bog'liq badiiy yechimlarni aniqlashdan iboratdir. Metod sifatida taqqoslash va adabiyotlar tahlili usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Tim Burton filmlari “Rojdestvo arafasidagi dahshatli tush”, “O'lik kelin”, “Frankenveyni” orqali an'anaviy texnologiya zamonaviy animatsiya san'atida yangi darajaga ko'tarilgan. Uning gotik estetika, grotesk obrazlar (g'aroyib va mutanosibli buzilgan, bir vaqtning o'zida kulgili hamda qo'rqinchli qahramonlar) va fantastik elementlarga boy uslub an'anaviy animatsiyani faqatgina bolalar uchun mo'ljallangan janrdan chiqib, keng auditoriya uchun badiiy san'at darajasiga olib chiqdi. Maqola natijasi sifatida Burton ijodining animatsiya tarixidagi o'rnini va uning an'anaviy texnologiyalarni yangicha talqin qilishdagi ahamiyati aniqlab berildi.

Kalit so'zlar: Tim Burton, stop-motion, an'anaviy texnologiya, animatsiya, gotik estetika, uslub, fantastik elementlar, grotesk obraz.

Аннотация: В данной статье анализируются традиционные технологии анимации и их стилистические особенности на примере творчества известного американского режиссёра и аниматора Тима Бёртона. Цель исследования заключается в выявлении применения кукольной анимации, декораций и пок кадровой съёмки в фильмах Бёртона, а также связанных с ними художественных решений. В качестве методов использовались сравнительный анализ и обзор литературы. Результаты исследования показали, что фильмы Тима Бёртона — «Кошмар перед Рождеством», «Труп невесты», «Франкенвини» — подняли традиционные технологии на новый уровень в современном анимационном искусстве. Его стиль, насыщенный готической эстетикой, гротескными образами (странные и нарушающие пропорции персонажи, одновременно комичные и пугающие) и фантастическими элементами, вывел традиционную анимацию за пределы детского жанра, превратив её в полноценное художественное искусство для широкой аудитории. В результате выявлено место творчества Бёртона в истории анимации и его значение в новой интерпретации традиционных технологий.

Ключевые слова: Тим Бёртон, стоп-моушн, традиционная технология, анимация, готическая эстетика, стиль, фантастические элементы, гротескный образ.

Abstract: This article analyzes traditional animation technologies and their stylistic features through the work of the renowned American director and animator Tim Burton. The aim of the study is to identify the use of puppet animation, set design, and frame-by-frame shooting in Burton's films, as well as the artistic solutions associated with them. The research methods include comparative analysis and literature review. The findings indicate that Burton's films — The Nightmare Before Christmas, Corpse Bride, and Frankenweenie — elevated traditional technologies to a new level in contemporary animation art. His style, enriched with Gothic aesthetics, grotesque characters (bizarre and disproportionate figures that are both humorous and frightening), and fantastic

elements, moved traditional animation beyond the boundaries of children's entertainment, transforming it into an art form for a wider audience. The study concludes by determining Burton's place in animation history and the significance of his reinterpretation of traditional techniques.

Keywords: Tim Burton, stop-motion, traditional technology, animation, Gothic aesthetics, style, fantastic elements, grotesque character.

Animatsiya san'ati XX asr davomida kinematografiyaning mustaqil yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanib, turli texnologiyalar asosida rivojlandi. Ular orasida an'anaviy texnologiyalar o'zining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Mazkur texnologiya kadrma-kadr suratga olish orqali qo'g'irchoqlar yoki predmetlarni harakatga keltirishga asoslanadi va natijada jonli, badiiy kuchga ega obrazlar yaratiladi. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, an'anaviy texnologiyalar "jonli va jonsiz narsalar o'rtasidagi chegarani yo'qotib, vizual fantastika va san'atni birlashtiradi"¹ (Maselli, 2018). Shu sababli bu texnologiya nafaqat bolalar auditoriyasi, balki kattalar uchun ham falsafiy va dramatik mazmun tashuvchi san'at shakliga aylangan. Jahon animatsiyasi tarixida qo'g'irchoq texnologiyasini yangicha bosqichga olib chiqqan mashhur ijodkorlardan biri — Tim Burtondir. U o'zining qisqa metrajli dastlabki filmlari "Vinsent" (1982); "Frankenveyni" (1984) orqali g'aroyib, surrealistik va gotik obrazlar dunyosini yaratdi. Keyinchalik esa "Rojdestvo arafasidagi dahshatli tush" (1993), "O'lik kelin" (2005), "Frankenveyni" (2012) kabi to'liq metrajli animatsion filmlari bilan an'anaviy texnologiyani san'at darajasiga ko'tardi. San'atshunoslarning fikricha, Burton "o'zining qorong'i estetika, fantastik obrazlar va murakkab sahna dizayni orqali animatsiyani nafaqat ko'ngilochar, balki falsafiy va badiiy mazmun tashuvchi janrga aylantirdi"² (Craft, 2010). Tim Burton ijodini tahlil qilish bugungi kunda ikki asosiy jihatdan ahamiyatlidir: birinchidan, u an'anaviy texnologiyalarni saqlab qolgan holda yangicha shaklda qo'llagan; ikkinchidan, uning uslubiy xususiyatlari jahon animatsiyasi san'atida o'ziga xos maktabni shakllantirgan. Shu sababli, Burton animatsiyalarini o'rganish orqali nafaqat texnologik jarayon, balki badiiy-uslubiy yangiliklar ham ilmiy nuqtai nazardan aniqlanadi. Mazkur maqolaning maqsadi Tim Burton animatsiyalarida an'anaviy texnologiyalarni va uslubiy xususiyatlarni tahlil qilish, ularning jahon animatsiyasi taraqqiyotidagi o'rni hamda badiiy ahamiyatini ochib berishdan iboratdir.

Tim Burton 1958-yilda AQShning Kaliforniya shtatida tug'ilgan. U yoshligidan chizmachilik va g'aroyib tasvirlarga qiziqqan. Burton Los-Anjeles San'at Institutida animatsiya bo'yicha tahsil olgan va dastlabki faoliyatini Walt Disney Studios'da rassom sifatida boshlagan. Biroq u Disney studiyasi uchun "juda qorong'i va g'aroyib" deb hisoblangan uslubini mustaqil ravishda davom ettirishga qaror qildi. Burtonning dastlabki qisqa metrajli filmi "Vinsent" (1982) edi. Bu filmda u Edgar Allan Po ijodidan ilhomlangan holda qora-oq tasvirlar va gotik estetika asosida hikoya quradi. Keyingi ishlardan biri "Frankenveyni" (1984) bo'lib, unda ilmiy-fantastik kayfiyat jonli aktyorlar ishtirokida berilgan. Bu tajriba keyinchalik "Frankenveyni" (2012) animatsion versiyasining yaratilishiga zamin bo'ldi. Burtonning haqiqiy muvaffaqiyati "Rojdestvo arafasidagi dahshatli tush" (1993) filmi bilan boshlandi.



1-rasm. "Rojdestvo arafasidagi dahshatli tush" filmidan sahna orti kadri (ShotOnWhat?,

2014).

Genry Selik rejissor sifatida ishlagan bo'lsa-da, filmning g'oyasi, estetikasi va obrazlari Burtonga tegishli edi. Ushbu film orqali Burton qo'g'irchoq texnologiyasini keng auditoriyaga tanitadi. Keyinchalik "O'lik kelin" (2005) va "Frankenveyni" (2012) filmlari bilan u texnologik va badiiy jihatdan mustaqil ijodkor sifatida animatsiya tarixida alohida o'rin egallaydi. Tim Burtonning stop-motion animatsiyalari texnik jihatdan murakkab va an'anaviy usullarga asoslangan bo'lib, ular animatsiya san'atida alohida o'rin tutadi. Ushbu filmlarda qo'llanilgan kadrma-kadr suratga olish usuli har bir sahnani yuzlab kadrlar orqali jonlantirish imkonini beradi. Masalan, "O'lik kelin" filmida bir soniyalik harakatni yaratish uchun yigirma to'rtagacha kadr olinishi, texnologiyaning naqadar mehnat talab etishini ko'rsatadi. Qo'g'irchoqlar texnik tomondan maxsus metal skelet — armaturalar yordamida yaratiladi, bu esa yuz ifodalari va harakatlarni xilma-xil ko'rsatishga imkon beradi. Burtonning "Frankenveyni" filmida it qahramoni yuzlab turli mimik ifodalar bilan boyitilgani texnologiyaning mukammalligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, Burton filmlarida dekoratsiyalar va sahna dizayni ham texnik yechimlarning muhim qismini tashkil etadi. Har bir epizod qo'lda yaratilgan maketlar asosida tasvirga olinadi. Masalan, "Rojdestvo arafasidagi dahshatli tush" filmidagi butun "Halloween Town" (Helloven shahar) shaharchasi miniatyura shaklida qurilgan bo'lib, u tomoshabinda real makon taassurotini uyg'otadi. Kamera va yorug'lik texnikasi ham film atmosferasini yaratishda asosiy rol o'ynaydi: keskin soyalar, yuqoridan berilgan rakurslar va yorug'lik kontrastlari sahnalarning dramatik kayfiyatini kuchaytiradi. Burton an'anaviy texnologiyalarni faqat texnik darajada emas, balki rang va musiqa uyg'unligi orqali ham boyitadi. "O'lik kelin" filmida "tiriklar dunyosi" kulrang va sust ranglarda berilgan bo'lsa, "o'liklar dunyosi" yorqin va rang-barang tasvirlar orqali ifodalanadi. Bunday texnik qarama-qarshilik dekoratsiyalarni yoritish usullari bilan ta'minlanadi. Musiqa esa, ayniqsa, bastakor Danny Elfman bilan hamkorlikda, texnik qurilishni badiiy ta'sir bilan uyg'unlashtiradi. Shu tariqa, Tim Burtonning an'anaviy texnologiyalarga asoslangan filmlari texnik jihatdan kadrma-kadr suratga olish, qo'g'irchoqlar mexanizmi, dekoratsiyalar, yorug'lik hamda rang va musiqaning uyg'unligi asosida shakllanib, jahon animatsiyasi tarixida o'ziga xos o'rin egallaydi.

Tim Burtonning animatsion ijodi o'zining dastlabki qisqa metrajli filmi "Vinsent" (1982) bilan boshlangan. Ushbu asar qora-oq ranglarda ishlangan bo'lib, unda grotesk obrazlar va gotik estetikaga xos tasviriy yechimlar mujassam edi. Qisqa metrajli bo'lsa-da, film Burton uslubining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Tadqiqotchilar ushbu filmni rejissorning "gotik poetikasining boshlanishi" sifatida talqin qilishadi¹ [Lipiner & Cobb, 2024]. Burtonning keyingi muhim loyihasi "Rojdestvo arafasidagi dahshatli tush" (1993) bo'lib, unda klassik qo'g'irchoq texnologiyasi keng miqyosda qo'llanildi. Film ishlab chiqarish jarayonida yuz minglab kadrlar yaratilgan bo'lib, bu o'z davrida animatsiya tarixidagi eng yirik tajribalardan biri hisoblanadi. Mazkur asarda qo'llanilgan "lip library"² (lab kutubxonasi) texnologiyasi esa qo'g'irchoqlar lab harakatlarini ancha real ko'rsatishga xizmat qildi. Shu orqali Burton an'anaviy texnologiyani yangilash va zamonaviylashtirishga erishdi. 2005-yilda yaratilgan "O'lik kelin" filmi esa texnologik va badiiy jihatdan yangi bosqich bo'ldi. Film tarixda birinchi marotaba raqamli kamera yordamida suratga olingan to'liq metrajli stop-motion animatsiya bo'lib, suratga olish jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirdi. Filmida tiriklar dunyosi va o'liklar dunyosi kontrastli rang va dekoratsiya yechimlari orqali yoritilib, vizual dramatism kuchaytirildi³ [Väliaho, 2012]. Burtonning "Frankenveyni" (2012) filmi ham uning an'anaviy texnologiyalarga sodiqligini ko'rsatadi. 1984-yildagi qisqa metrajli versiyaning kengaytirilgan shakli bo'lgan ushbu filmida yuzlab almashtiriladigan qo'g'irchoq detallaridan foydalanilgan. Natijada qahramonlarning hissiy holatlari yanada jonli ko'rinishga ega bo'ldi. Bu film Burtonning ijodiy yondashuvi qanday qilib texnologik mukammallik va badiiy yangilikni birlashtira olishini ko'rsatdi.



2-rasm. Tim Burtonning “O‘lik kelin” filmidan sahna (Stop Motion Works, 2005).

Tim Burtonning stop-motion animatsiyalarida badiiy uslub alohida o‘rin tutadi. Uning filmlarida grotesk obrazlar ko‘p uchraydi. Bu obrazlar odatda mutanosibligi buzilgan, g‘aroyib shakllarda tasvirlanadi: uzun oyoq-qo‘llar, haddan tashqari katta ko‘zlar yoki skeletga o‘xshash tana shakllari orqali Burton o‘ziga xos estetik dunyoni yaratadi. Masalan, “Rojdestvo arafasidagi dahshatli tush” filmidagi Jek Skelet tashqi ko‘rinishi jihatidan qo‘rqinchli bo‘lsa-da, xarakteri samimiy va dramatikdir. Bu tarzda yaratilgan qahramonlar bir vaqtning o‘zida ham kulgili, ham qo‘rqinchli bo‘lib, tomoshabinlarda qarama-qarshi hissiyotlarni uyg‘otadi. Shu sababli, Burton filmlari “grotesk estetikasi”ga mansub deb baholanadi [Lipiner & Cobb, 2024]. Burtonning badiiy uslubida hikoya qilish yondashuvi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Uning filmlarida hayot va o‘lim o‘rtasidagi chegaralar shartli ravishda yo‘q qilinadi. “O‘lik kelin” filmida tiriklar dunyosi sokin, kulrang va biroz sust ohangda tasvirlangan bo‘lsa, o‘liklar dunyosi aksincha, rang-barang va quvnoq bo‘lib ko‘rsatiladi. Bu qarama-qarshi tasviriy yechimlar dramatik kontrastni kuchaytiradi va tomoshabinni chuqur estetik tajribaga chorlaydi. Bundan tashqari, Burton filmlarida yumor va qo‘rquv uyg‘unligi ham alohida e‘tiborga loyiq. Qo‘rqinchli ko‘rinadigan qahramonlar ko‘pincha kulgili yoki samimiy xarakterga ega bo‘ladi. Bu ironik yondashuv Burtonning badiiy uslubini yanada kuchaytiradi. Shu tariqa, Burton filmlarida grotesk obrazlar, kontrastli tasviriy yechimlar va ironik hikoya uslubi o‘zaro uyg‘unlashib, jahon animatsiyasida noyob maktabni shakllantirdi.

Tim Burtonning uslubi boshqa mashhur stop-motion ijodkorlar uslubi bilan solishtirilganda o‘zining mutlaqo alohida xususiyatlariga ega ekanini ko‘rish mumkin. Masalan, ingliz animatori Nik Parkning (Wallace & Gromit, Chicken Run) filmlari quvnoq, kulgili va hayotiy vaziyatlarga asoslangan bo‘lsa, Burtonning asarlari qorong‘i, dramatik va gotik estetika bilan yo‘g‘rilgan. Park plastilin animatsiyasidan foydalanib, oddiy britan turmushini satirik tarzda aks ettirgan bo‘lsa, Burton qo‘g‘irchoq animatsiyasi orqali fantastik va grotesk dunyo yaratadi. Shuningdek, Genry Selik ham (James and the Giant Peach, Coraline) Burton kabi qo‘g‘irchoq texnologiyasini ishlatgan, ammo uning filmlarida surrealistik va fantastik unsurlar ko‘proq bo‘lsa-da, Burton uslubidagi kuchli gotik estetika sezilmaydi. Shu ma’noda, Burtonning filmlari texnik jihatdan boshqa rejissorlarga yaqin bo‘lsa-da, badiiy-uslubiy jihatdan ulardan keskin farq qiladi. Mazkur tadqiqotda Tim Burton animatsiyalarini ilmiy tahlil qilish uchun bir nechta metodlardan foydalanildi. Avvalo, adabiyotlar tahlili metodi qo‘llanib, animatsiya san’ati, an’anaviy texnologiya va Burton ijodi haqida mavjud ilmiy manbalar o‘rganildi. Masalan, Maselli stop-motion animatsiyasini “jonli va jonsiz obrazlar o‘rtasidagi chegarani yo‘qotuvchi texnologiya” sifatida talqin etadi, Lipiner va Kob esa Burton filmlarida grotesk obrazlarning badiiy-estetik ahamiyatini tahlil qilganlar. Ushbu nazariy qarashlar Burton filmlarini texnik va badiiy nuqtai nazardan tadqiq etishda asos bo‘lib xizmat qildi. Shuningdek, tadqiqotda qiyosiy metod ham qo‘llanildi. Burtonning animatsiyalari boshqa mashhur animatorlar — Nik Park va Genry Selik ishlari bilan qiyoslandi. Bu metod orqali Burtonning texnik yondashuvi umumiyliklarga ega ekanligi, ammo badiiy uslubi mutlaqo betakrorligi aniqlangan.

Kraft bu borada Burtonni “animatsiyani bolalar uchun ko‘ngilochar janrdan chiqargan va uni kattalar uchun ham falsafiy-badiiy san’at darajasiga ko‘targan ijodkor” sifatida baholaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Tim Burtonning an’anaviy texnologiyaga asoslangan animatsion ijodi jahon animatsiyasi tarixida alohida o‘rin tutadi. Uning filmlari texnik va badiiy jihatdan an’anaviy animatsiyasining eng yuqori namunalaridan hisoblanadi. Burton qo‘g‘irchoq animatsiyasi, kadrma-kadr suratga olish, murakkab dekoratsiyalar va yorug‘lik yechimlarini qo‘llash orqali texnologik mukammallikka erishgan. Ayniqsa, “Rojdestvo arafasidagi dahshatli tush” filmida qo‘llanilgan “lip library” (lab kutubxonasi) texnologiyasi va “O‘lik kelin” filmida ilk bor raqamli kameradan foydalanilishi stop-motion texnologiyasini zamonaviy bosqichga olib chiqqanligini ko‘rsatadi. Badiiy jihatdan esa Burton grotesk obrazlar, gotik estetika, kontrastli ranglar va ironik hikoya qilish uslubi orqali animatsiya san’atiga yangicha nafas olib kirdi. Uning filmlarida qo‘rquv va kulgi uyg‘unligi, hayot va o‘lim o‘rtasidagi shartli chegaralarning yo‘q qilinishi o‘ziga xos badiiy-estetik maktabni shakllantiradi. Qiyosiy tahlil natijasida aniqlandiki, Tim Burtonning texnik yondashuvi boshqa mashhur stop-motion ustalari bilan umumiyliklarga ega bo‘lsa-da, badiiy uslubi ularni keskin farqlantiradi. Nik Park filmlaridagi kulgili hayotiy vaziyatlar va Genry Selikning surrealistik uslubidan farqli ravishda, Burton ijodi grotesk va dramatik estetika bilan yo‘g‘rilgan. Shunday qilib, Tim Burtonning animatsiyalari an’anaviy texnologiyalarni zamonaviylashtirish va ularni betakror badiiy ifodalar bilan uyg‘unlashtirish orqali jahon animatsiyasi rivojiga katta hissa qo‘shganini ta’kidlash mumkin.

Foydalangan adabiyot ro‘yxati:

1. Maselli, V. (2018). The Evolution of Stop-motion Animation Technique Through 120 Years of Technological Innovations. *International Journal of Literature and Arts*, 6(3), 54–62.
2. Lipiner, M., & Cobb, T. J. (2021). The Grotesque Social Outcast in the Films of Tim Burton. In *Tim Burton’s Bodies: Gothic, Animated, Creaturely and Corporeal* (pp.201–218). Edinburgh University Press.
3. Batrishia Nurin Binti Norazman, Dahlan Abdul Ghani, & Zaky Khusaini. (2024). Comparison Between Tim Burton And Wes Anderson’s Style Of Stop Motion Animated Film. *Kurdish Studies*, 12(4), 949–960.
4. Craft, L. (2010). *Tim Burton: The Monster and the Crowd – A Postmodern Film Director*. Palgrave Macmillan.
5. Väliaho, P. (2012). Animate/inanimate duality in Tim Burton’s *Corpse Bride*. In *Miranda*, 6, 1–15.
6. ShotOnWhat? (2014). *Tim Burton: The Nightmare Before Christmas (1993)* [Behind-the-scenes image]. Retrieved from <https://onset.shotonwhat.com/gallery/tim-burton-the-nightmare-before-christmas-1993/>
7. Stop Motion Works. (2005). Behind the scenes of Tim Burton’s *Corpse Bride*. Retrieved from https://tse2.mm.bing.net/th/id/OIP.7_UxhOIxgsqZaLrwMsSHjwHaFB?pid=Api